

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 386 sahifa.
2025-yil, 19-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQUISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG’URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
<i>Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li</i>	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
<i>Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich</i>	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
<i>Ягудин Дмитрий Рустамович</i>	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
<i>Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich</i>	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
<i>Abduraimova Nigora Abdugapparovna</i>	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
<i>Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li</i>	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
<i>Мансурова Сайёра Бахтияровна</i>	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
<i>Xolikova Oydin Olimjonovna</i>	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
<i>Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich</i>	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
<i>Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi</i>	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
<i>Suyunov Asror Baxtiyorovich</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
<i>Z.Teshayev</i>	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
<i>Ismailov Allayor Rashidovich</i>	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
<i>Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li</i>	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
<i>Исмагулова Гульмира Нуралиевна</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i>	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
<i>Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li</i>	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abdukarimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI.....	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS.....	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	



EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Raximov Eshmurod Normuradovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Makroiqtisodiy siyosat va prognozashtirish kafedrası” dotsenti

e-mail: raximoveshmurod88@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning eksport-import salohiyatini oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari chuqur tahlil qilingan. Jumladan, eksport salohiyatini baholashga qaratilgan kompleks ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, tarmoq va hududlar kesimida eksport salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlanib, ularni rivojlantirish mexanizmlari taklif etilgan. Maqolada raqobatbardosh milliy mahsulotlar eksportini kengaytirish strategiyalari, yangi bozorlarni o'zlashtirish hamda yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, eksportni rag'batlantirishda davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, xususan, soliq, kredit va institutsional yordam choralarini kuchaytirish zarurligi ilmiy asosda ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: eksport salohiyati, barqaror iqtisodiy o'sish, eksport-import, kompleks baholash ko'rsatkichlari, tarmoq rivojlanishi, hududiy salohiyat, raqobatbardosh mahsulotlar, davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, yuqori texnologiyalar, eksport strategiyasi, innovatsiyalar, investitsiyalar, xizmatlar eksporti.

Abstract. The article provides an in-depth analysis of the issues related to improving the methodology for ensuring sustainable economic growth through the enhancement of Uzbekistan's export-import potential. In particular, it substantiates the necessity of developing a comprehensive system of indicators for assessing export potential. The paper identifies priority directions for developing export capacity by sectors and regions and proposes effective mechanisms for their implementation. Special attention is devoted to strategies for expanding the export of competitive national products, entering new markets, and increasing the production of high-technology goods. Furthermore, the article emphasizes the importance of strengthening state support mechanisms for export promotion, including the improvement of tax, credit, and institutional support measures.

Keywords: export potential, sustainable economic growth, export-import, comprehensive assessment indicators, sectoral development, regional capacity, competitive products, state support mechanisms, foreign economic relations, high technologies, export strategy, innovations, investments, service exports.

Аннотация. В статье проведён глубокий анализ вопросов совершенствования методологии обеспечения устойчивого экономического роста путём повышения экспортно-импортного потенциала Узбекистана. Обоснована необходимость разработки комплексной системы индикаторов для оценки экспортного потенциала. Определены приоритетные направления развития экспортного потенциала по отраслям и регионам, предложены эффективные механизмы их реализации. Особое внимание уделено стратегиям расширения экспорта конкурентоспособной национальной продукции, освоению новых рынков и производству высокотехнологичной продукции. Также отмечена важность совершенствования государственных механизмов поддержки экспорта, включая усиление налоговых, кредитных и институциональных мер содействия.

Ключевые слова: экспортный потенциал, устойчивый экономический рост, экспорт-импорт, комплексные оценочные индикаторы, развитие отраслей, региональный потенциал, конкурентоспособная продукция, государственные механизмы поддержки, внешнеэкономические связи, высокие технологии, экспортная стратегия, инновации, инвестиции, экспорт услуг.



KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda eksport-import faoliyatining o'rni tobora ortib bormoqda. O'zbekiston iqtisodiyoti uchun esa eksport salohiyatini oshirish milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi bozorlarni o'zlashtirish, innovatsion hamda yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, mamlakatimizda eksport salohiyatini samarali baholash, uning tarkibiy tuzilmasini tizimli tarzda o'rganish, tarmoq va hududlar kesimida eksportni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hamda integratsiyalashgan rivojlanish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda iqtisodiy siyosatning dolzarb vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport salohiyatini oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalasi O'zbekiston va xorijiy ilmiy maktablarda keng o'rganilayotgan dolzarb yo'nalishlardan biridir. So'nggi yillarda bu borada olib borilgan tadqiqotlar mamlakatlarning tashqi savdo siyosatini takomillashtirish, eksportni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirish nazariy hamda amaliy asoslarini yoritib bermoqda.

Xorijiy iqtisodchilar orasida Chad P. Bownning "Trade Deflection and Trade Depression" asari alohida e'tiborga loyiq bo'lib, unda xalqaro savdo oqimlarining siyosiy va institutsional omillar ta'sirida shakllanishi hamda eksport-import siyosatining iqtisodiy barqarorlikka ta'siri chuqur tahlil qilingan. Muallif savdo siyosatini muvofiqlashtirishda tashqi omillar, tarif cheklovlari va global ta'minot zanjirlarining rolini asoslab bergan. Ushbu yondashuv O'zbekiston misolida ham dolzarb bo'lib, mamlakatning eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun xalqaro integratsiya mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonlik olimlarning ilmiy izlanishlarida ham eksport salohiyatini oshirish masalasiga kompleks yondashuv ko'zda tutiladi. Prezident qarorlari va strategik dasturlar, xususan, "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi" hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida iqtisodiyotning tashqi savdoga yo'naltirilgan tarmoqlarini rivojlantirish, eksportni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Jahon bankining "Uzbekistan Country Economic Update (2023)" hisobotida esa mamlakat eksport salohiyatining o'sish sur'atlari, eksport diversifikatsiyasi va xizmatlar eksportining ulushi bo'yicha ijobiy natijalar qayd etilgan. Hisobotda eksportdagi yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish va bojxona jarayonlarini soddalashtirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishida hal qiluvchi omillar sifatida e'tirof etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalalari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Ishda tizimli tahlil, taqqoslash, korrelyatsion-regression tahlil va statistik guruhlash usullari qo'llanildi.

Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Jahon banki hisobotlari, hamda Prezident farmon va qarorlaridan olingan rasmiy ma'lumotlardan foydalanildi.

Eksport salohiyatini baholashda muallif tomonidan kompleks indikatorli model taklif etildi. Ushbu model eksport hajmi, YAIMdagi ulushi, diversifikatsiya darajasi, raqobatbardoshlik, infratuzilma va innovatsion salohiyat kabi ko'rsatkichlar asosida shakllantirildi.

Natijalar 2023–2025-yillar uchun tahlil qilinib, eksport o'sish dinamikasi, xizmatlar eksportining ulushi va hududiy tafovutlar aniqlangan. Olingan xulosalar eksport siyosatini takomillashtirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tashqi savdo faoliyatining izchil rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishi va mustahkamlanishi O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda hukumat tomonidan qabul qilingan eksportni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat va strategiyalar mahalliy ishlab chiqaruvchilarga xalqaro bozor sharoitida o'z raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur tajriba va imkoniyatlarni yaratmoqda.

Bu jarayon natijasida, O'zbekiston mahsulotlarining jahon bozorlaridagi raqobat ustunligi mustahkamlanib, ularning eksport geografiyasi kengaymoqda. Respublika iqtisodiyotining tashqi savdo faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar — jumladan, eksportni rag'batlantirish va importni optimallashtirishga yo'naltirilgan islohotlar — mamlakatimizning tashqi savdo muvozanatini yaxshilashga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil yanvar–dekabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi 65,9 milliard AQSH dollarini tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,4 milliard dollarga yoki 3,8 foizga ko'paygan. Ushbu natija O'zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiy makonidagi o'rnining mustahkamlanayotganini va eksport-import salohiyatining izchil o'sishini yaqqol ifodalaydi. Bundan tashqari, eksportni qo'llab-quvvatlash va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat siyosati mamlakatimiz mahsulotlarini yangi bozorlarga olib chiqish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda raqobatbardosh mahsulotlar portfelini diversifikatsiya qilish imkonini bermoqda.

2023-yil yanvar–dekabr oylarida O'zbekiston tashqi savdo sohasida sezilarli o'sish qayd etilgan. Eksport hajmi 26 948,2 million AQSH dollariga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,4 foizga oshgan, import esa 38 985,8 million dollarga ko'tarilib, 0,8 foizlik o'sishni ko'rsatgan. Natijada, tashqi savdo balansi 12 037,6 million dollarlik manfiy saldoga ega bo'lgan bo'lsa-da, bu holat import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishning kengayishi va eksport salohiyatining izchil oshib borayotganini aks ettiradi.


Ushbu raqamlar eksport salohiyatini oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash metodologiyasini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida eksportning ulushi yildan-yilga ortib borayotgani, mamlakatning jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

2024-yil yanvar–dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida hududlar o'rtasidagi tafovutlar yaqqol namoyon bo'ldi. Eng yuqori ulush Toshkent shahriga to'g'ri kelib, u jami tashqi savdo aylanmasining 38,4 foizini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 25 337,8 million AQSH dollariga teng bo'ldi.

Toshkent shahri, O'zbekistonning iqtisodiy markazi sifatida, eksport va import operatsiyalarida yetakchi o'rin egallab, mamlakat tashqi savdo salohiyatining asosiy tarkibiy qismini tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida eng past ulush Surxondaryo viloyatiga to'g'ri kelib, uning hissasi jami tashqi savdo aylanmasining 0,6 foizini tashkil etdi. Mazkur viloyatning tashqi savdo aylanmasi 416,1 million AQSH dollariga teng bo'lib, bu ko'rsatkich mamlakatdagi boshqa hududlarga nisbatan nisbatan past darajada shakllangan.

Shu bilan birga, barcha viloyatlar o'z tashqi savdo faoliyati orqali milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga munosib hissa qo'shmoqda, biroq Toshkent shahri yetakchi mavqeini saqlab qolmoqda (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasining hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasi (2024-yil yanvar–dekabr, mln AQSH doll.)¹.

1 https://stat.uz/img/press_reliz_tashi_savdo_uzb_yanvar-dekabr_2024_p20124.pdf



Boshqa viloyatlar ham o'z tashqi savdo ko'rsatkichlari orqali milliy iqtisodiyot rivojiga munosib hissa qo'shmoqda, biroq Toshkent shahri yetakchi mavqeini saqlab kelmoqda. Ushbu raqamlar hududlarning iqtisodiy rivojlanishi va tashqi savdo salohiyatini chuqur tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksport salohiyatini baholash uchun kompleks ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish zarur. Ushbu tizim mamlakat yoki alohida hududlarning eksport sohasidagi imkoniyatlari, infratuzilma darajasi, mahsulot diversifikatsiyasi, bozorlar kengligi, innovatsion salohiyati hamda kadrlar malakasini kompleks tarzda baholash imkonini beradi.


Har bir ko'rsatkich o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ularning umumiy tahlili eksport salohiyatining umumiy darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Eksport salohiyati — bu mamlakatning xalqaro bozorlarga raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar bilan muvaffaqiyatli chiqish qobiliyatini ifodalovchi muhim iqtisodiy ko'rsatkichdir. Uning samaradorligi bir qator asosiy omillar bilan belgilanadi.

Avvalo, eksport hajmi va uning o'sish sur'ati, shuningdek, eksportning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi iqtisodiyotning tashqi bozorga yo'naltirilganlik darajasini aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkichlar iqtisodiy o'sishning tashqi omillar bilan bog'liqligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksport tarkibining mahsulotlar va bozorlar bo'yicha diversifikatsiyalashganligi ham katta ahamiyatga ega. Bu degani, mamlakat faqat cheklangan miqdordagi mahsulot yoki bozorlarga tayanib qolmasdan, turli tarmoqlarni qamrab olgan holda ko'plab davlatlar bilan eksport aloqalarini kengaytirishi zarur. Bunday yondashuv global iqtisodiy tebranishlarga nisbatan barqarorlikni oshiradi hamda eksport salohiyatining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqobatbardoshlik darajasi eksportni rivojlantirishda asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Mahsulotlar sifatining yuqoriligi, narxlarning raqobatbardoshligi va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish jarayonlari mamlakatning xalqaro bozorlarda barqaror muvaffaqiyatga erishishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi (2-rasm).




2-rasm. Eksport salohiyatining darajasini baholash ko'rsatkichlari².

Yuklarni tez, xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali yetkazib berish imkoniyatlari eksportchilarning raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, bojxona xizmatlarining sifati ham eksportni rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, jarayonlarning soddalashtirilishi, shaffofligi va tezkorligi mahsulotlarning o'z vaqtida xorijiy bozorga chiqishini ta'minlaydi.

Yuqorida qayd etilgan barcha omillarni samarali boshqarish esa malakali mutaxassislar ishtirokisiz amalga oshirilmaydi. Shu sababli, kadrlar malakasini oshirish, ularning professional rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ilmiy salohiyatni kuchaytirish hamda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallash — eksport salohiyatining barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy omillardandir (3-rasm).

2 Muallif izlanishlari asosida mustaqil tuzilgan.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil yanvar–aprel oylaridagi tashqi savdo aylanmasi³.

2025-yil yanvar–aprel oylarida O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo ayirboshlanishi (TSA) hajmi 24,6 milliard AQSH dollariga yetib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 3,44 milliard dollarga yoki 16,3 foizga oshgan. Ushbu o'sish O'zbekistonning global savdo tizimidagi faolligi hamda xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining izchil davom etayotganini yaqqol ifodalaydi.

Mazkur davrda eksport hajmi sezilarli darajada o'sib, 11,88 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35,1 foizga yuqori. Ushbu natija O'zbekiston mahsulotlariga bo'lgan tashqi talabning ortib borayotganini hamda eksport salohiyatining mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.


Eksport tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatga ega tovarlar ulushining ortishi, ishlab chiqaruvchilarning yangi bozorlarni faol o'zlashtirayotgani bilan birgalikda, bu jarayonni yanada jadallashtiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Import hajmi esa 12,73 milliard AQSH dollariga teng bo'lib, 2024-yilning shu davriga nisbatan 2,9 foizga oshgan. Mazkur o'sish ichki bozor talabining kengayganini, xususan, investitsion mahsulotlar va xomashyolarga bo'lgan ehtiyojning ortganini bildiradi. Import hajmidagi bunday o'sish iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan ilg'or texnologiyalar, uskunalar va resurslarning mamlakatga kirib kelishini ta'minlayotganini ko'rsatadi.

Tahlil qilinayotgan davrda 846,3 million AQSH dollari miqdorida tashqi savdo saldosi manfiy shakllangan bo'lsa-da, bu holat import hajmining eksportdan yuqoriligini aks ettiradi. Shu bilan birga, eksportning o'sish sur'atlari yuqori bo'lgani sababli, tashqi savdo balansidagi tafovutning qisqarish tendensiyasi kuzatilmoqda.

O'zbekiston 2025-yilning dastlabki to'rt oyida jahonning 183 davlati bilan savdo aloqalarini amalga oshirgan. Tashqi savdo ayirboshlanishining asosiy hamkorlari orasida Xitoy Xalq Respublikasi (17,0%), Rossiya Federatsiyasi (15,1%), Qozog'iston (5,7%), Turkiya (3,4%) va Koreya Respublikasi (2,4%) yetakchi o'rinlarni egallagan. Ushbu mamlakatlar bilan faol savdo hamkorligi O'zbekistonning geografik jihatdan qulay joylashuvi, rivojlangan transport-logistika infratuzilmasi va tashqi savdoni liberallashtirishga qaratilgan siyosiy islohotlarning samarasi sifatida baholanadi.

Umuman olganda, 2025-yil yanvar–aprel oylarida qayd etilgan ijobiy iqtisodiy dinamikalar mamlakatning tashqi savdo strategiyasi doirasida erishilgan muhim yutuqlarni namoyon etmoqda. Eksport salohiyatining izchil o'sib borayotgani, yangi bozorlarning zabt etilishi va savdo aloqalarining geografik kengayishi O'zbekistonning barqaror va ochiq iqtisodiy model sari dadil harakatlanayotganini tasdiqlaydi (4-rasm).



4-rasm. 2025-yil yanvar–aprel oylarida xizmatlar eksportining tahlili⁴.

3 Statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

4 Statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tuzilgan.



2025-yil yanvar–aprel oylarida xizmatlar eksporti hajmi 2 505,3 million AQSH dollarini tashkil etib, umumiy eksport hajmining 21,1 foizini egalladi. Bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 36,4 foizga oshgan. Mazkur ijobiy dinamik o'sish mamlakat xizmatlar sektorida eksport salohiyatining izchil ortib borayotganini anglatadi. Xizmatlar eksporti tarkibida asosiy ulushni sayohatlar (turizm) egallagan bo'lib, u umumiy xizmatlar eksportining 47,2 foizini tashkil etgan. Keyingi yirik yo'nalish — transport xizmatlari bo'lib, u 36,9 foizlik ulush bilan ikkinchi o'rinda qayd etilgan. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlari (telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari) 9,4 foizni, boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq xizmatlar 3,6 foizni, boshqa xizmatlar 2,9 foizni, sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatlari 1,0 foizni, moliyaviy xizmatlar esa 0,9 foizni tashkil etgan.

Ushbu ma'lumotlar O'zbekistonda xizmatlar sohasining diversifikatsiyalanib borayotganini, shuningdek, yangi xizmat turlarining shakllanayotgani va kengayib borayotganini ko'rsatadi. Xususan, turizm va AKT xizmatlarining salmoqli o'sishi ushbu yo'nalishlarga qaratilgan davlat siyosati va investitsion e'tiborning amaliy samarasi sifatida izohlanadi.

O'zbekistonda tashqi savdo sohasini rivojlantirish, eksport hajmini oshirish hamda milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirish maqsadida qator imtiyozlar va qulay shart-sharoitlar joriy etilgan (1-jadval).

1-jadval.

Imtiyoz turi	Tavsifi
Eksportga nisbatan QQSning nol stavkada qo'llanilishi	Eksport qilinadigan mahsulotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) 0 foiz stavkada belgilanadi. Bu chora eksportni rag'batlantirish va milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.
Texnologik uskuna va ayrim tovarlar uchun bojxona imtiyozlari	Investitsiya loyihalari doirasida olib kirilayotgan texnologik uskunalar va zarur tovarlar QQS hamda bojxona bojlari to'lovidan ozod etiladi , bu esa investitsion muhitni yaxshilash va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Ushbu imtiyozlar mamlakatning ochiq va erkin iqtisodiyotga bosqichma-bosqich integratsiyalashuvini ta'minlab, eksport faoliyatini rivojlantiruvchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Avvalo, soliq va bojxona tizimida soddalashtirish hamda yengilliklar joriy etilgan bo'lib, eksport qilinadigan mahsulotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) nol stavkada qo'llaniladi. Shuningdek, investitsiya loyihalari doirasida olib kirilayotgan texnologik uskunalar va ayrim mahsulotlar bojxona bojlari hamda QQS to'lovidan ozod etiladi.

Bundan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan korxonalarga valyutani erkin tasarruf qilish imkoniyati yaratilgan bo'lib, bu ularga moliyaviy mustaqillik va erkinlikni kengaytirish imkonini beradi.

Eksportchilar uchun davlat tomonidan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va grantlar ajratilishi ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tashqi savdo bitimlarini ro'yxatdan o'tkazish, mahsulotlarni sertifikatlash va deklaratsiyalash jarayonlarining elektron platformalar orqali amalga oshirilishi tadbirkorlarga vaqt va resurslarni tejash, hamda tashkiliy samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyoti jadal o'zgarib borayotgan global iqtisodiy muhitda raqobatbardoshlikni saqlab qolish va barqaror o'sishni ta'minlash uchun eksport salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatning eksport-import siyosatini takomillashtirish, eksportni diversifikatsiyalash va yangi bozorlarni egallash iqtisodiy barqarorlikning asosiy omillaridan biridir. Yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida eksport hajmining o'sishi, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushining ortishi hamda xizmatlar eksportining kengayishi ijobiy natija sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va turizm sohalarining eksportdagi salmog'ining ortib borishi mamlakatda innovatsion yondashuvlar va yangi iqtisodiy imkoniyatlarning shakllanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, eksport salohiyatini yanada rivojlantirish uchun mahsulot turlarini va bozorlar geografiyasini kengaytirish, transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish, bojxona jarayonlarini soddalashtirish, yuqori texnologiyali va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek eksportchi korxonalar uchun moliyaviy, soliq va institutsional imtiyozlarni kengaytirish zarur. Bular bilan bir qatorda, kadrlar salohiyatini oshirish, xalqaro marketing, tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobatbardosh mahsulot ishlab



chiqarish bo'yicha zamonaviy bilimlarni egallash imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, eksport salohiyatini oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishini, balki mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, milliy brendlarni shakllantirish va uzoq muddatli iqtisodiy mustaqillikka erishishni ham ta'minlaydi. Shu bois, izchil davlat siyosati, ilmiy asoslangan metodologik yondashuvlar va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish O'zbekistonning global iqtisodiy tizimdagi raqobatbardosh o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, PF-60-son. <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413?ONDATE=29.12.2023%2000>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi savdo faoliyatini qo'llab-quvvatlash va eksportni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4869-son qarori. – Toshkent, 2020-yil.
4. Bown, Chad P. Trade Deflection and Trade Depression.
5. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi. 2025-yil yanvar–aprel oylari uchun ma'lumot.
6. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi. 2024-yil yanvar–dekabr oylari uchun ma'lumot.
7. "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hujjat.
8. O'zbekiston Respublikasi "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonuni (yangi tahrir).
9. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
10. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari. – <https://miit.uz>
11. Jahon banki. Uzbekistan Country Economic Update. – World Bank Report, 2023. – www.worldbank.org

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100